

IQTISODIYOTNI MUTANOSIBLI RIVOJLANTIRISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Xo'jaboyeva Yulduz Davronqul qizi
o'qituvchi.

Ubaydullayeva Go'zal

Talaba. Guliston davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10999597>

Annotatsiya. Mamlakat miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda yangi yondashuvlarni izlash, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, tadbirkorlik, samaradorlik, strategiya, ekologik vaziyat, oziq-ovqat sanoati.

THE ROLE OF BALANCED ECONOMIC DEVELOPMENT IN ENSURING FOOD SECURITY

Abstract. Ensuring food safety at the national level and searching for new approaches, the issue of food safety, as well as the independence of Uzbekistan, socio-economic and political stability of all countries, were considered.

Key words: security, entrepreneurship, efficiency, strategy, environmental situation, food industry.

РОЛЬ СБАЛАНСИРОВАННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация. Обеспечение продовольственной безопасности на национальном уровне и поиск новых подходов, вопрос продовольственной безопасности, а также независимости, социально-экономической и политической стабильности Узбекистана рассматривался во всех странах.

Ключевые слова: безопасность, предпринимательство, эффективность, стратегия, экологическая ситуация, пищевая промышленность.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy strategiyasi va siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib, jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy, millatlararo barqarorlik uni amalga oshirish samaradorligiga bog'liqdir. Buning uchun mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi shakllantirilishi lozim bo'ladi. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi va mexanizmini shakllantirishning asosiy maqsadi va vazifalari uning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash strategiyasida belgilab qo'yilgan bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini global miqyosda xalqaro tashkilotlar va maxsus organlar (FAO, Xalqaro savdo tashkiloti, Oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi) hal qiladilar. Ularning asosiy vazifasi insoniyat rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishga ko'maklashishdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish:

– ishlab chiqarish hajmini oshirib borishga ta'sir ko'rsatuvchi uzoq muddatli dastur va loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish;

– zaxiralarni yaratish va noqulay iqtisodiy va ekologik vaziyatlarda yordam tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlat va davlatlaro darajada oziq-ovqat xavfsizligining asosiy maqsadi iqtisodiyotning barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarini muvozanatlashtirishdan iborat.

Mintaqaviy darajadagi asosiy maqsad-aholining barcha guruhlari oziq-ovqatlarni oʻrnatilgan meʼyorlarga muvofiq isteʼmol qilinishini kafolatlaydigan darajadagi daromadlar bilan taʼminlashdir.

Aholining ijtimoiy guruhlari darajasida oziq-ovqat mahsulotlarini ularning miqdori, assortimenti, sifati boʻyicha ratsional meʼyorlarga muvofiq ovqatlanishini taʼminlash zarur.

Oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning har bir darajasida mazkur jarayonni boshqarish tegishli maʼmuriy organlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Ushbu organlarning vazifalari zarur mahsulotlarni samarali ishlab chiqarish uchun; ularga qarashli hududlarda yashovchi aholining tavsiya etilgan miqdorda mahsulotni sotib olish imkonini beradigan daromadga ega boʻlishlari uchun; savdo tarmoqlariga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini taʼminlash uchun; mahsulotlarning sifati va xavfsizligini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Davlatlararo darajada oziq-ovqat muammolarini hal qilish boshqa mamlakatlarda oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etishga koʻmaklashishi bilan bogʻliq. Bu uchun mamlakatlar davlatlararo hamkorlikda ishtirok etadilar, xalqaro oziq-ovqat xavfsizligini yaratishga hissa qoʻshadilar. Bunda ular oʻzlarining raqobatbardosh ishlab chiqarishlarini rivojlantirishni va hududlarning hamda barcha ijtimoiy guruhlarning oʻz-oʻzini taʼminlashlarini ragʻbatlantiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligining har bir darajasi oʻzaro bogʻliq va oʻzaro bir-birini taqozo etuvchi ichki va tashqi omillar taʼsirida shakllanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga erishish quyidagi muhim vazifalarni davlat tomonidan amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Aholi bandligi sohasida samarali siyosatni olib borish;
2. Oziq-ovqatga ega boʻlishda tengsizlik va qashshoqlikni bartaraf etishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy siyosatni olib borish;
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini turli-tuman, barqaror va intensiv ishlab chiqarishga erishish, uning samaradorligini oshirish;
4. Xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda ilgʻor texnologiyalarni joriy etishga koʻmaklashish;
5. Hududlarni xomashyo va oziq-ovqat mahsuloti bilan oʻzini taʼminlash va xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklardan samarali foydalangan holda qishloq xoʻjaligini joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish;
6. Faol tashqi iqtisodiy siyosatni olib borish, eksport-import faoliyatini optimallashtirish;
7. Agrar sektorni investitsiyalash.

Barqarorlik: oziq-ovqat taʼminoti uzilmasligi uchun aholi, oila yoki alohida har doim oziq-ovqatga ega boʻla olishi lozim. Ular kutilmagan hodisalar (masalan, iqtisodiy yoki iqlimiy boʻhron) yoki tsiklik hodisalar (masalan, iqlimiy oziq-ovqat tanqisligi) tufayli oziq-ovqatdan uzilib qolmasligi lozim.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Oziq-ovqat sanoati ham muhim ro'l o'ynaydi. Oziq-ovqat sanoati tayyor yoki yarim fabrikat holda ovqat mahsulotlari, shuningdek, ichimliklar tamaki buyumlari hamda yog' ishlab chiqarish asosida sovul va yuvish vositalarining bir necha turlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar guruhidir. Xalqaro tarmoqlar standart klassifikatsiyasida oziq-ovqat ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi, ya'ni unumli tarmoqlar guruhiga kiritilgan.

Oziq-ovqat sanoatining bir qismi xom ashyo rayonlari, boshqa qismi iste'mol rayonlari bilan bog'langan bo'ladi. O'zbekistonda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash asosida shakllangan. Uning geografik, ya'ni hududiy joylashuvi qayta ishlanadigan xom ashyo xususiyatlariga bog'liq. Shu boisdan agar xom ashyo tez buziladigan bo'lsa, tarmoq korxonalarini uni ishlab chiqarish joylarida joylashtiriladi.

Hozirgi vaqtga kelib, oziq-ovqat sanoati korxonalarini yuqori darajada mexanizatsiyalashgan, ma'lum darajada avtomatlashgan, kompyuter texnologiyalari va robotlar qo'llaniladigan ishlab chiqarishga aylangan. Shuning uchun mazkur tarmoq nafaqat qishloqxo'jaligi, shu bilan birga mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati bilan bevosita integratsiyalashmoqda.

Shundan kelib chiqib oziq-ovqat sanoati korxonalarini uyushmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- ✓ uyushma tarkibidagi oziq-ovqat korxonalarini manfaatlarini qimoya qilish, ularning ish faoliyatiga bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini jalb etish;

- ✓ oziq-ovqat mahsulotlari ichki va tashqi bozorini o'rganish, marketing izlanishlarini tashkil etish;

- ✓ korxonalarini modernizatsiyalash va texnik jixozlash, investitsiyalarni jalb etish;

- ✓ korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni standartlashtirishga ko'maklashish;

- ✓ yog'-moy va paxta tozalash korxonalarini o'rtasidagi mexanizmni mukamallashtirish, paxta yog'i chiqishini va tayyor mahsulotning o'rnatilgan tartibda sotilishini ta'minlash;

- ✓ uyushma tarmog'idagi korxonalariga axborot ko'magi berish, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

“O'zbekoziqovqatxolding” xolding kompaniyasi faoliyatining asosiy vazifalari vayo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- ✓ meva-sabzavot hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarini o'rganish bo'yicha chuqur marketing tadqiqotlari o'tkazish va buning asosida tarmoqni o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

- ✓ yuqori qo'shilgan qiymatga ega ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo'lgan yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida tarmoq korxonalarida qishloqxo'jaligioziq-ovqat xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlash zamonaviy texnologik siklini tashkil etish;

- ✓ qishloqxo'jaligimahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlash korxonalarini, tayyorlash va sotish tashkilotlari urtasida bozor munosabatlari asosida, uning tayyorlanishi, saklanishi, yanada chukurroq qayta ishlanishi va sotilishini hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan qishloqxo'jaligioziq-ovqat xom ashyosi xarakterining zamonaviy logistikasini keng joriy etish;

- ✓ ilg'or xorijiy texnologiya va dizayndan foydalangan holda zamonaviy tara-qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish;

✓ qayta ishlangan meva-sabzavot, shuningdek boshka oziq-ovqat mahsulotlarining eksportini tashkillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini baholashning zamonaviy xalqaro tizimini ishlab chiqarishga joriy etish;

✓ ishlab chiqariladigan mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda tarmoq korxonalariga ko'maklashish, tarmoq korxonalariga axborot xizmatlari ko'rsatish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish¹³⁵.

Bugungi kunda tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti.

Noz-ne'matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o'rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, er unumdorligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayotir.

Oqibatda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050 yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga etadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat emaslik natijasida kelib chiqayotir.

Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda.

Qolaversa, sayyoramizdagi har to'rt bolaning bir nafari o'z yoshiga nisbatan o'smay qolgani aniqlangan. Maktab yoshidagi 66 mln. o'g'il-qiz darslarga beixtiyor och keladi.

Shulardan 23 mln. Afrikada istiqomat qiladi.

Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun kurrai zamin aholisining 40 foizi aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qashshoq qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 foizini etkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot etkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi.

Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo'l urildi. Ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kompaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmaning Atrof-muhit bo'yicha tashkiloti(YuNEP) ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 1,3 mlrd. tonna oziq-ovqat mahsulotlari tashlab yuborilar ekan. Ne'matlarning bunday isrof qilinishidek mantiqsiz holatga barham berish uchun birinchi navbatda ularni saqlash sharoitlarini o'zgartirish taklifini beramiz.

Statistikaga ko'ra, dunyoda har yili qariyb to'rt mlrd. tonna oziq-ovqat ishlab chiqariladi, agar ulardan oqilona foydalanilib, taqsimlansa, bu aslida sayyora ahlining barchasiga yetgan bo'lardi. Yuqoridagi kabi omillar tufayli dunyo oziq-ovqat bozorlarida narxning oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Zero, oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisini shu kabi asosiy mahsulotlar bilan o'zini o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi. Shuningdek, oziq-ovqat importiga mamlakat o'ta bog'liq bo'lmasligi kerak.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi.

Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi conini o'sishi asnosida jon boshiga icte'mol ko'paymoqda. Binobarin, so'nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya'ni iqtisodiyotda band bo'lganlarning 27 foizi ishlaydi. YaIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo'lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta. Yana bir e'tiborli jihati, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, u keng quloq yo'qiyapti. Ular bilan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining 62 foizi paxta-to'qimachilikda, 8 foizi chorvachilikda va 7,5 foizi meva-sabzavotchilikda qamrab olingani buning tasdig'idir.

Oziq-ovqat mahsulotlari importi ayrim sub'ektlar tomonidan monopoliyaga aylantirildi.

Xorijdan keltirilayotgan shakar, qand, o'simlik yog'lari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ichki bozorda ko'payishi hamda narx-navo pasayishiga xoizmat qilishi kerak.

Pirovardida iste'mol tovarlari respublika tovar xom ashyo birjalarida sotilmoqda. Ichki iste'mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yuqoridagi mahsulotlar importi tovar-xom ashyo birjalari va xorijiy birjalar elektron savdolari tizimi orqali amalga oshirilyapti. Oziq-ovqat mahsulotlarining xaridi, jamg'arma tushumi va xarajatlari yagona portalda e'lon qilib borilmoqda.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi//T.: "O'zbekiston". 2022. -412 b.
2. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.
3. Shokirova F.N. Innovatsiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim nazariy jihatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2018.
4. Болшедворская В.К. Экономика АПК: экономика овощеводства. Учебное пособие – Иркутск: Изд-во ИрГСХА, 2013 – 120 с.